

«ASAKA» BANK OMONATLARNI JALB QILISH BO'YICHA G'OLIB



O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va Banklar Uyushmasi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 31 oktyabrdagi «Aholining omonatlarini jalb qilish bo'yicha Respublika tijorat banklari o'rtasida tanlov o'tkazish to'g'risidagi»gi Qaroriga asosan 2015 yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan tanlovda «Asaka» bank **«Aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi banki»** nominatsiyasida g'olib deb topildi va 3-o'ringa sazovor bo'ldi.

«Asaka» bankning Surxondaryo viloyat filiali **«Shaharlarda aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi filiali»** nominatsiyasida g'olib chiqdi va 2-o'rinni egalladi.

Shuningdek, «Asaka» bank tomonidan joriy etilgan «Qadriyat» omonat turi **«Milliy valyutadagi eng yaxshi muddatli depozit»** deb topildi.

Ta'kidlash joizki, 2015 yil davomida «Asaka» bankning aholi omonatlari qoldig'i 108,3 mlrd.so'mga o'sdi va 2016 yil 1 yanvar holatiga so'm ekvivalentida 599,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Omonatchilar soni 214,0 ming nafarga o'sdi va 1 634,0 ming nafardan oshdi.

Bu esa aholining «Asaka» bankiga bo'lgan ishonchini oshib borayotganligidan va bank tizimida bu sohada olib borilayotgan ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat bermoqda.